

Ko'krak pompasini tanlash va uni olish

Bu birinchi chaqalog'ingiz bo'ladimi yoki oilangizga yangi a'zo qo'shilyaptimi, ko'krak pompasini olish haqida savollaringiz bo'lishi tabiiy. Tanlash mumkin bo'lgan ko'plab brendlar va xususiyatlar hisobiga qaysi ko'krak pompasi sizga mos kelishini anglash qiyin bo'lishi mumkin. Bu axborot siz va chaqalog'ingiz uchun mos pompani tanlashga yordam beradi.



Homiladorlik paytida pompani qanday olishim mumkin?

1. Sug'urta kompaniyasi, pompa ta'minotchisi yoki Ayollar, chaqaloqlar va bolalar (Women, Infants and Children, WIC) idorasiga telefon qilib, to'liq va qisman qoplangan pompalar uchun variantlaringiz haqida so'rang.
Agar siz WIC dasturida ro'yxatdan o'tgan bo'lsangiz yoki bu dastur uchun nomzod bo'lishingiz mumkin bo'lsa, sug'urta yordamida ko'krak pompasini olishda yordam so'rab WIC idorangizga murojaat qiling. Agar sug'urtangiz yordamida pompa ololmasangiz, WIC idorangiz farzandingiz tug'ilganidan keyin uni muddatli to'lov asosida berishi yoki u bilan ta'minlashi mumkin.
2. Sug'urta kompaniyangiz yoki pompa ta'minotchingiz hujjatlarni akusherlik ofisingizga (tug'ruq majmuasi) yuboradi.
3. Akusherlik ofisingiz hujjatlarni to'ldiradi va ularni sug'urta kompaniyangiz yoki pompa ta'minotchingizga yuboradi. Akusherlik ofisingizdan bu hujjatlarni to'ldirish uchun qancha vaqt ketishi haqida so'rang.
4. Pompa uyingizga yuboriladi.

Ko'krak pompasining narxi qancha?

Arzon tibbiy parvarish haqidagi qonun (The Affordable Care Act, ACA) sug'urta kompaniyalaridan ko'krak pompasini bepul tarqatishni talab qiladi. Ba'zi sug'urta kompaniyalari o'zingiz sotib olgan pompa xarajatini qoplaydi, lekin ko'pchiligi bunday qilmaydi. Tafsilotlar uchun sug'urta kompaniyangizga murojaat qiling. Savollar:

- Pompalarning qaysi turi, rusumi va modellari qamrab olingan?
- Pompani qayerdan buyurtma qilishim mumkin?
- Agar qoplangan pompani yangilashni xohlasam, narxidagi farqni to'lashim mumkinmi?
- Agar shifoxonaga mo'ljallangan pompani ijaraga olishim kerak bo'lsa, xarajatning qanday qismini va qancha muddatga to'laysiz?

Agar sug'urta orqali ko'krak pompasini olish huquqiga ega bo'lmasangiz:

- Ko'krak pompalari va anjomlari moslashuvchan xarajatlar hisobi va sog'liqni saqlash jamg'armalari hisobi (flexible spending account/health savings account, FSA/HSA) uchun mos keladi.
- WICda ro'yxatdan o'tdingizmi? Ehtiyojlaringiz uchun eng yaxshi pompa ayuzasidan yordam va ko'rsatmalar olish uchun ofisingizga telefon qiling.

**ACA nafaqat
pompalarnigina taqdim
etadi! Pompaning
almashuvchi qismlari,
pompa uchun
byustgalter, ona sutini
saqlash qopchalari va
emizish xizmatlariga
oid qamrovingiz
haqida so'rang.**

Pompaning qanday turlari mavjud?

Har xil turdagi pompalar turli vaziyatlar uchun mo'ljallangan:

- **Qo'l pompasi:** chaqaloqdan vaqti-vaqti bilan uzoqda bo'lganingizda va sut kelishi yaxshi bo'lsa, bu eng yaxshi usul hisoblanadi.
- **Elektr pompa:** agar siz kuniga bir necha soat bolangizdan uzoqda bo'lsangiz yoki ish/maktabga qaytsangiz, sut yaxshi kelsa va chaqaloq bilan birga bo'lganingizda uni emizsangiz, sut kelishini ta'minlab turish uchun mo'ljallangan.
- **Taqiladigan pompa:** an'anaviy pompa kabi sut kelishini ta'minlab turmasligi yoki saqlamasligi mumkin.
- **Ijaraga beriladigan pompa:** agar chaqaloq emishga intilmayotgan bo'lsa, chaqaloqdan ajralgan bo'lsangiz yoki chaqaloq biror sababga ko'ra ema olmayotgan bo'lsa, sut kelishini ta'minlash va dastaklash uchun mo'ljallangan.

Agar individual ehtiyojlaringiz uchun qaysi pompa mos kelishi mumkinligi haqida qo'shimcha savollaringiz bo'lsa, emizish bo'yicha maslahatchi bilan gaplashing.

Pompa tanlashda inobatga olish kerak bo'lgan boshqa jihatlar

- Kafolat muddati qancha?
- Undan foydalanish qanchalik oson?
 - Bir vaqtning o'zida bitta ko'krakdan tortadimi yoki ikkala ko'krakdan hammi?
 - Tortish kuchi va sikllarini o'zgartirsa bo'ladimi?
 - Sutni sog'ib tashlashingiz kerak bo'lgan vaqtda undan foydalansa bo'ladimi?
 - Pompa qismlarini (detallarini) ishlatishlar oralig'ida tozalashga qancha vaqt ketadi?
 - Qo'lsiz rejim o'rnatilganmi?
 - Agar yo'q bo'lsa, uni pompali byustgalter bilan ishlatish mumkinmi (qo'lsiz foydalanish uchun qismlarni ushlab turadi)?
- Agar pompa bilan sayohat qilish kerak bo'lsa:
 - Pompaning kattaligi qancha?
 - Uning og'irligi qanaqa?
- Unda batareya bormi?
 - Uni qayta quvvatlash mumkinmi?
 - Batareyadan qanday quvvat va qancha vaqt ishlashini kutish mumkin?
- Agar boshqa moslama kerak bo'lsa, unda boshqa o'lchamdagi ko'krak qalqonlari (flaneslar) bormi?
- Pompa bilan birga nimalar bo'ladi? (masalan, qo'shimcha shishalar, yuk xaltasi, sovitgich qutisi, qo'shimcha qismlar)
 - Pompa qismlari va almashadigan qismlarining narxini taqqoslab, byudjetingizga eng mos keladiganini aniqlang.

Pompa bilan bog'liq muammo bormi?

Nosozliklarni bartaraf etish haqida ma'lumot olish uchun pompa ishlab chiqaruvchisi veb-saytiga tashrif buyuring yoki ularning mijozlarga yordam xizmatiga murojaat qiling.

Agar pompa kafolatidan foydalanishingiz kerak bo'lsa, pompa ishlab chiqaruvchisiga sotib olganingizni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishingiz kerak bo'ladi. Agar sizda xaridni tasdiqlovchi hujjat bo'lmasa, uni olish uchun quyidagi ko'rsatmalardan foydalaning.

Xaridni tasdiqlovchi hujjatni qanday olishingiz pompani qanday qabul qilganingizga bog'liq.

1. Pompaning sug'urta imtiyoz sifatida taqdim etildi:

- a. Agar sizga pompa yetkazib bergan kompaniyani tanisangiz (sayt, shifoxona, shifokor xonasi orqali), sotib olganingizni tasdiqlovchi hujjatni olish uchun bevosita pompa provayderiga murojaat qiling.

YOKI

- b. Agar sizga pompani yetkazib bergan kompaniyani tanimasangiz, sug'urta kompaniyasiga murojaat qiling va ulardan xaridingizni tasdiqlovchi hujjatingizni so'rang.
- ##### 2. Siz pompani do'kon yoki veb-saytdan o'zingiz sotib oldingiz:
- a. Do'kon cheki xaridning isboti hisoblanadi. Agar chekingiz bo'lmasa, yordam olish uchun pompa sotib olingan do'konga murojaat qiling.

BRV1386457